



MA'NAVIY-AHLOQIY KRIZIS VA UNING YECHIMLARI

X.U.Samatov

Ilmiy rahbar

Quryozov Shohjahon

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

Samarqand filiali Kompyuter Injiniringi

fakulteti DI24-08 guruhi talabasi

Email quryozovshohjahon0210@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda kuzatilayotgan ma'naviy va axloqiy inqiroz holatlari, ularning kelib chiqish sabablari hamda ijtimoiy hayotga ta'siri tahlil qilinadi. Inson qalbidagi bo'shliq, axloqiy qadriyatlar inqirozi, yosh avlodning ma'naviy tarbiyasidagi kamchiliklar kabi omillar misolida bu muammoning asl mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, islom tamadduni, milliy urf-odatlar, oilaviy va ta'lim muassasalari roli orqali ma'naviy inqirozga qarshi kurashish yo'llari ko'rsatiladi. Muallif bu borada Imom G'azzoliy, Forobiy, Islom Karimov, Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf va Abdulla Avloniy kabi mutafakkir va mutaxassislar qarashlariga tayangan. Maqolada ma'naviy tiklanishning muhimligi va uning barqaror jamiyat qurishdagi o'rni ilmiy asoslangan holda yoritiladi.

Kalit so'zlar: islom, tarbiya, odob, hadis, axloq, mezon.



AXLOQ

Insonlarni yaxshilikg'a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi o'zidan xabardor bo'lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O'z aybini bilub, iqrar qilub tuzatmag'a sa'y va ko'shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram afandimiz: «Mezon tarozusiga qo'yiladurgan amallarning ichida yaxshi xulqdan og'irroqi yo'qdur. Mo'min banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro'za tutub ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar», – demishlar.

So'ylasang so'yla yaxshi so'zlardan,

Yo'qsa jim turmoqing erur yaxshi.

O'ylasang yaxshi fikrlar o'yla,

Yo'qsa gung bo'lmoqing erur yaxshi.

Ishlasang ishla yaxshi ishlarni,

Yo'qsa bekorlig'ing erur yaxshi.

— Yoshlarning jamiyatdagi o`rni va odob-axloqi

Axloqsizlik oxirgi yillarda jamiyat boshiga tushgan bir falokat tusini oldi. Jamiyatimizda, ayniqsa yoshlar orasida kundan-kunga avj olayotgan axloqsizlikning oldi olinmasa, yomon oqibatlar kelib chiqishi va kata falokatlar yuz berishi muqarrar. So`ngi chorak asr davomida yoshlar orasida axloq me'yorlarining buzilish hollari tez-tez uchraydigan bo`lib qoldi. Axloq mezonlariga zid har xil xatti-harakatlar, avvalo, yoshlarning qariyalarga bo`lgan munosabatlarida namoyon bo`la boshladi. Bu xildagi odobsizliklarni har qadamda uchratish mumkin. Xususan, shahar transportlarida bunday



ahvol doimo uchrab turadi. Hammamizga ma'lumki, Samarqand shahri transportlarida hammavaqt tiqilinch. Transportga tushgan qariyalarga ko'pincha yoshlar joy bo'shatib berishmaydi. O'tirgan yosh yigit yoki qiz o'ta axloqsiz bo'lsa, ko'zini lo'q qilib o'tiraveradi. Odobsiz, lekin ozgina bo'lsa-da, uyat borki bahona qilib yo telefon yokida kitobga tikilib o'tirade. Bechora qariyalar transport qo'zg'alganida yoki daf'atan to'xtaganda yiqilib tushgudek bo'lib, g'oyat qiynalib manzilga yetib oladilar. Qariyalarga izzat-hurmat ko'rsatmayotgan yoshlarning ko'pchiligi studentlar – bo'lajak mutaxassislar, ziyolilar. Bu, albatta, achinarli hol. Tobora tarqalib borayotgan axloqsizlik va xayosizlikning shu darajada xunuk shakllari uchramoqdaki, ularga befarq qarashning o'zi axloqiy poklik mezonlariga ziddir.

—Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar

Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi



Ijtimoiy illat va yot g'oyalarga qarshi yoshlarni Islom ma'naviyati bilan emlash:

Alloh taologa beadam hamdu – sanolarimiz va Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga esa behisob salavotu durudlarimiz bo'lsin. Bizga ma'lumki, shifokorlarda «kasalni davolagandan ko'ra, oldini olmoq oson», degan naql bor. Shuning uchun ham ular doimo bemorlarga tashxis qo'yganlarida «kasalni o'tkazib yuboribsiz, shuni oldinroq kelib tekshirtirsangiz va birinchi alomatlari sezilgandayoq oldini olsangiz bo'lar edi, mana endi buni davolash uzoq muddatga cho'ziladi va qiyinlashadi», deb aytadi. Haqiqatan ham har qanday illat xoh u jismoniy yoki ma'naviy bo'lsin o'z vaqtida oldi olinib, unga qarshi kurashilsa, kerakli natijaga erishish oson bo'ladi. Shuning uchun ham tibbiyot xodimlari, mutaxassisleri tomonidan «emlash» degan davolash uslublaridan biri, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, biror go'dak yoki katta kishilarni ham kasallanish xavfi bo'lganda uni oldini olish uchun mazkur kasallikka qarshi kurashuvchi immunitetni hosil qiladigan dori yuboriladi va bu uslub butun dunyo bo'yicha kasallikni oldini olish borasida eng yaxshi va samarali uslubdir. E'tibor beradigan bo'lsak bu uslub ko'proq yangi tug'ilgan chaqaloqlar yoki maktab yoshiga yetmagan bolalarga nisbatan qo'llaniladi. Sababi ular nozik va har qanday illatlardan pok va musaffo xilqatdirlar. Har qanday illat esa odatda nozik va pok narsalarga tez ta'sir qiladi.

Tarbiya og'ir mashaqqatli jarayon

Tarbiya –og'ir, mashaqqatli jarayon. Ayniqsa, o'zini o'zi tarbiya qilish. Nafsimiz hamisha tarbiyaga muhtoj ekanligini hisobga olsak, bu jarayonda o'zimizdan orta olishimiz juda katta gap. O'zgalar tarbiyasi haqida-ku, aytmasa ham bo'lar.

Tanishimni, uning yozganlarini bejizga eslamadim. U o'zi amal qilmaydigan fazilatlar haqida gapirdi. Shu orqali kimgadir “tarbiya bermoqchi” bo'ldi. Shuni “hazm” qilishga qiynalдим. Uni o'qiganlar nima deb o'yladi ekan? Tarbiyaning boshi amal hisoblanadi. Afsuski, ko'pchiligimiz buni unutib qo'yyapmiz. Shuning uchun bo'lsa kerak,



aytganlarimiz quruq gap bo'lib qolavertyapti. Bu holda boshqalarga qanday ta'sir qilish mumkin?

Keksa bir jurnalistning gaplariga bir quloq tutib ko'raylik: «To'g'risini aytay, har gal qo'limga qalam olishdan oldin juda ko'p o'ylayman. U xoh kichik bir maqola bo'lsin, xoh kattarog'i, ancha paytgacha dunyo yuzini ko'rsatgim kelmaydi. Go'yo kimdir tepamda turib kuzatayotganday. Yozganlarimga yolg'on aralashsa, “O'zingga boq” deb ustimdan kulayotganday bo'laveradi. Shunday bo'lsa ham, ba'zi “asar”larimiz hech qiyinchiliksiz chiqib ketdi. O'qisam, hozir ham uyalaman».

Aytilgan har bir so'zning javobi bor. Demak, noni so'z bo'lgan ijodkorlarning zimmasidagi mas'uliyatning zalvorini tasavvur qilish qiyin emas. So'zlarning o'zi ogohlantiradi: o'ta hazir bo'lish kerak. Ba'zan qalam ham yozishni “istamay” qoladi. Demak, ahvol chatoq. O'zimizni to'g'rilashimiz kerakka o'xshaydi. Aksariyat gaplarning qog'ozdagina qolib ketayotganiga ham sababchi, ehtimol, “tarbiyali” muallifning o'zidir. Kim bilsin, faqat o'zimiz amal qiladiganlar haqida yozsak, qog'ozni to'ldira olarmikanmiz?

Xulosa:

Zamonaviy jamiyatda yuzaga kelayotgan ma'naviy-axloqiy inqiroz insonlar ongidagi bo'shliq, qadriyatlarning yemirilishi va axloqiy me'yorlarga bepisandlik kabi omillar bilan bevosita bog'liq. Ayniqsa, yoshlar orasida tarbiyaning susayishi, odob-axloqning qadrsizlanib borayotgani jamiyat barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Axloqsizlikning kundalik hayotda keng tarqalishi, yoshi kattalarga hurmatsizlik va jamiyat odob normalariga zid xatti-harakatlar, bu muammolarning chuqurligini ko'rsatadi. Bunday inqirozni yengish uchun, avvalo, ma'naviy meros, milliy qadriyatlar, diniy va tarixiy ildizlarimizga tayanish, yoshlar tarbiyasiga jiddiy yondashish lozim. Imom G'azzoliy, Forobiy, Abdulla Avloniy, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf kabi allomalar asarlarida axloqiy tarbiya va qalbni poklash masalalariga berilgan e'tibor – bugungi kun



uchun ham dolzarb yechim manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, har bir fuqaro, ta'lim tizimi va ijtimoiy institutlar bu borada o'z mas'uliyatini anglab, jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni qaror toptirish uchun faol harakat qilishi zarur.

ADABIYOTLAR:

1. **Abdulla Avloniy** — “Turkiy Guliston yoxud axloq” “Yangi asr avlodi” 2019
2. **Vali Majidov** — “Yoshlar tarbiyasi — hammamizni ishimiz” 1989
3. **Islom Karimov** — “Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch” – Toshkent: “Ma'naviyat” 2008
4. **Karmana tumani “Jaloyir” jome masjidi imom-xatibi A.Hakimov**
<https://aqida.uz/resources/ijtimoiy-illat-va-yot-goyalarga-qarshi-yoshlarni-islom-manaviyati-bilan-emlash/110>
5. **Amalsiz amallar.** <https://ziyouz.uz/oila-va-jamiyat/amalsiz-amallar/>